

“SOHIBQIRON” ASARIDAGI TARIXIY VA TO‘QIMA OBRAZLAR*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi I-bosqich talabasi****Jo‘raqulova Gavhar Zoyir qizi****Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti****Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li***

Annotatsiya. A.Oripovning “Sohibqiron” dramatik-dostoni buyuk sarkarda A.Temurning siymosi orqali milliy g‘urur, tarixiy xotira va vatanparvarlik g‘oyasini ifodalovchi badiiy asardir. Bu asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Asarda A.Temur, Bibixonim, Jahongir Mirzo, Ulug‘bek kabi tarixiy shaxslar obrazli tarzda tasvirlangan. Bu obrazlar orqali muallif o‘sha zamonning siyosiy va ma‘naviy muhitini ifodalab beradi. Asar davomida uchraydigan oddiy xalq vakillari, dushmanlar kabi to‘qima obrazlar esa, asarga chuqur ma‘naviy va badiiy mazmun baxsh etadi.

Kalit so‘zlar. “Sohibqiron” dramasi, tarixiy obrazlar, to‘qima obrazlar, tarixiy haqiqat, obraz va obrazlilik.

Obraz so‘zi rus tilidan olingan bo‘lib, o‘zbekcha tarjimada “aks” degan ma‘noni anglatadi. Kishining oynadagi aksiga nisbatan ham “obraz” so‘zi ishlatiladi. Badiiy obraz esa, borliqning, undagi narsa, hodisa va hokazolarning badiiy asardagi aksi. Biroq, badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, yo‘q, u borliqning san‘atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida qayta ishlangan aksidir. Obraz o‘rganilish manbasiga ko‘ra tarixiy va to‘qima obrazlarga bo‘linadi. Tarixiy obrazlar bu haqiqiy tarixiy shaxslarga asoslangan obrazlardir. Bunday obrazlar tarixiy voqeani ko‘rsatish, hayotiy haqiqatni yoritish maqsadida qo‘llaniladi. To‘qima obrazlar esa, bu yozuvchi tomonidan o‘ylab topilgan, real hayotda mavjud bo‘lmagan, ammo voqea yoki g‘oyani ifodalash uchun yaratilgan obrazdir. [1:63]

Biz “Sohibqiron” asarini o‘rganar ekanmiz undagi obrazlarni tarixiy va to‘qima obrazlar bo‘lib oldik. Asarda qatnashgan asosiy tarixiy qahramon bu A.Temurdir. U tarixiy shaxs bo‘lib, donishmand, adolatparvar, vatanparvar va xalqparvar, irodali shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning adolatparvarligini asarda keltirilgan “Kuch-adolatdadir” jumlasini o‘zi uchun shior qilib olganligida ko‘rishimiz mumkin. Asardagi tarixiy qahramonlardan yana biri bu Bibixonimdir. U A.Temurning rafiqasi. Tarixda mavjud bo‘lgan shaxsdir. Asarda u mehribon, oqila, fidokor, ayni damda sadoqatli ayol sifatida gavdalanadi. Buni yozuvchi quyidagi parcha orqali ham ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin:

“Kecha tunda odatimcha shahar aylanib,

Bir madrasa hovlisiga tashrif buyurdim.
 Bu uchovlon hujranishin suhbat qilardi
 Biri dedi - oh, qaniydi imkonim bo'lsaydi agar,
 Hozir palov oshar edim tuguncha rosa.
 Ikkinchisi aytar edi qo'limga tushsa,
 Uxlamasdan o'qir edim falon kitobni.
 G'oyat qiziq uchinchisin armoni esa
 U der edi -qani, taqdir nasib etsa-yu
 Bibixonim visoliga bir zum yetishdan
 Devonbegi: chakki emas xumparlarning ishtahalari,
 Aniqladak bo'lar uchinchisini
 Bibixonim: Oshni orzu qilganingiz qaysi biringiz?
 1-mullavacha: U-men edim
 Bibixonim: Devonbegi bu yigitchaga
 Seryog', serg'ayrat bitta
 Palov yasab beringiz
 Ilm-u fanga ruju qo'ygan qaytdingiz edi?
 2-mullavacha: Kitobni men tanlaganim, hazrat malikam
 Bibixonim Samarqandning ulug',nomdor bir olimiga
 Shogirtlikka berilsin u niyati qutlug'
 Uchinchi mullavacha
 Demak, sensan oshiq bo'lgan Bibixonimga?
 Uchinchi mullavacha
 Men iqrorman
 Jazo bering, eng oliy jazo!
 Bibixonim: Men Temurning zavjasiman
 Hoy, mullavacha
 Javobim ham, jazoyim ham shul:
 Yetisholmassan. [2:449]

Asardagi Jahongir Mirzo ham tarixiy shaxs. Uning vafoti Sohibqiron qalbida chuqur iz qoldirgan. Asarda u Kesh shahrini tariflar ekan "...mangu orom olar unda o'g'lim Jahongir" deya ta'kidlab o'tadi. Sulton Muhammad, Shohrux, Ulug'bek - Temurning avlodlari sifatida eslab o'tiladi. Ayniqsa, Ulug'bek ilm-fan tarafdori sifatida qadrlanadi. Buni Temurning o'limi oldidan Ulug'bekka qarata aytgan quyidagi gaplaridan bilishimiz mumkin.

"Seni tiyrak nabiram deb suyib yuraman,
 Ishtiyoqing bisyor emish ilm-u urfonda.
 Yulduzlarning tilini ham uqar emishdan,
 Orzu etgum payti kelib mening naslimdan

Zora osmon jismlari lmining ham sardori chiqsa”[2:478]

To‘qima obrazlarga keladigan bo‘lsak, bularga biz asardagi oddiy xalq vakillari, qassoblar, qariya kabi obrazlarni keltirishimiz mumkin. Ular orqali Temurning xalq bilan munosabati, adolatparvarligi, haqiqatgo‘yligi yoritiladi. Bu obrazlar ko‘proq Ramziy va g‘oyaviy ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, Temur:

*Yer yuzida yengilmas bir saltanat tuzdik,
Qovushtirdik boshlarini ne-ne xalqlarning.
Samarqandning qutlug‘ nomi bizni har qayda
Qo‘llab turdi, yo‘llab turdi g‘alaba tomon
Qirq kun zafar nashidadin sursin Samarqand
Yetti iqlim to‘y o‘tkazsin biz bilan birga
Farmonim shul:
Zindonlarda bandi yotganlar
Bugundanoq afv etilsin
Ozod etilsin.
Xaloyiq
Ming bor qulluq olampanoh marhamatiga
Qariya
Alohzrat, farmoningiz g‘oyat o‘rinli,
Shu taxlitda himmat qilgan payg‘ambarlar ham
Bordir lekin farmongacha bandi bo‘lmagan
Ozod yurgan turli-tuman jinoyatchilar
A.Temur
Ular kimlar?
Ayting menga Samarqand ahli
Yer yuzini olibmizu adolat uchun
Nainki, o‘z yurtimizda beparvo bo‘lsak
Qariya
El-yurt to‘ydi doiraning qilmishlaridan
Xaloyiq
Tuzdik! Tuzdik!
Temur
Qilmishi ne?
Qariya
U poraxo‘rdir
U jarima undiradi bo‘lar bo‘lmasga
Tekin bo‘lsa, mushugi ham oftobga chiqmas,
Faqatgina fikr qoldi soliqdan holi
Temur*

Fuqarodan uch nafari guvohlik bersin

Xalq

Olampanoh biz barchamiz guvohmiz, guvoh

Temur

Samarqandning dorug'adi dorga tortilsin. [2:452]

Bu parchadagi to'qima obrazlar orqali yozuvchi A.Temurning xalqni dardini eshitib, adolat bilan hukm chiqaradigan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Dramadagi ziddiyatli obrazlarni ham to'qima obrazlar sifatida olib shimiz mumkin. Masalan, dushmanlar yoki ichki qarama-qarshi kuchlar. Ularning ba'zilar tarixiy bo'lishi mumkin, lekin ko'pi muallif tomonidan sahnaviy holatni kuchaytirish, asarni qiziqarli qilib tasvirlash uchun yaratilgan. Qahramonlarning tushlari yoki ichki kechinmalari orqali paydo bo'ladigan timsollarni ham to'qima obrazlar sifatida olishimiz mumkin. Bular badiiy tasvir usuli sifatida qo'llanilib, haqiqiy hayotdagi emas, balki manaviy holatlarni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, A.Oripov "Sohibqiron" asarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima vositalaridan mahorat bilan foydalangan va ularni bir-biriga uyg'un holda qo'llagan. Asardagi tarixiy obrazlar insonlarga ishonchlilik, ajdodlardan faxrlanish va milliy g'urur uyg'otuvchi kuch beradi. To'qima obrazlar esa, badiiylikni va g'oyaviy teranlikni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2004, 224 b.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 496 b.
3. Rasulumxamedova Durdona To'liqjonovna. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin, Yuridik fanlar axborotnomasi – ilmiy-amaliy huquqiy jurnali. 2022-yil 1-son.